



UO'K 94(58)930.25:72.033.2

**Elbek BOTIROV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD*  
E-mail: [elbekalisherovich91@gmail.com](mailto:elbekalisherovich91@gmail.com)

*PhD M.Isaqova taqrizi asosida*

## IKHTIYORIDDIN FORTRESS: FROM A POLITICAL CENTER TO A HISTORICAL MONUMENT

Annotation

The article examines the historical development of the Ikhtiyoriddin Fortress in Herat, which served as a major political, military, and cultural center of medieval Khorasan. Based on written sources and archaeological research, the study explores the fortress's transformation from a defensive structure into a royal residence and later a historical monument. Particular attention is given to its reconstruction during the Timurid period under Shahrukh Mirza. The research applies comparative and historiographical methods to highlight the fortress's architectural, strategic, and political significance within Central Asian history.

**Keywords:** Ikhtiyoriddin Fortress, Herat, Khorasan, Kart dynasty, Timurids, Shahrukh Mirza, fortification architecture, archaeology, historical sources, medieval history.

## КРЕПОСТЬ ИХТИЯРИДДИН: ОТ ПОЛИТИЧЕСКОГО ЦЕНТРА ДО ИСТОРИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА

Аннотация

В статье рассматривается историческое развитие крепости Ихтиярiddин в Герате, которая в средние века служила важным политическим, военным и культурным центром Хорасана. На основе письменных источников и археологических исследований анализируется процесс превращения крепости из оборонительного сооружения в резиденцию правителей, а затем – в исторический памятник. Особое внимание уделено её реконструкции в период Тимуридов при Шахрухе Мирзе. Используя сравнительно-исторический и источниковедческий методы, автор раскрывает архитектурное, стратегическое и политическое значение крепости в контексте истории Центральной Азии.

**Ключевые слова:** Крепость Ихтиярiddин, Герат, Хорасан, династия Карт, Тимуриды, Шахрух Мирза, фортификационная архитектура, археология, исторические источники, средневековая история.

## IXTIYORIDDIN QAL'ASI: SIYOSIY MARKAZDAN TARIXIY YODGORLIKKA QADAR TARIX

Annotatsiya

Maqolada Hirot shahridagi Ixtiyoriddin qal'asining o'rta asrlarda Xurosonning siyosiy, harbiy va madaniy markazi sifatida shakllanishi tahlil qilingan. Tadqiqot yozma manbalar va arxeologik izlanish natijalariga asoslanib, qal'aning mudofaa inshootidan podsho qarorgohigacha bo'lgan davr, so'ng tarixiy yodgorlikka aylanish jarayoni tarixi yoritilgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida Shohruh Mirzo tomonidan qayta qurilishi alohida e'tiborga olingan. Tadqiqotda qiyosiy va tarixshunoslik uslublari qo'llanib, qal'aning me'moriy, strategik va siyosiy ahamiyati Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ixtiyoriddin qal'asi, Hirot, Xuroson, Kartlar sulolasi, Temuriylar, Shohruh Mirzo, arxeologiya, fortifikatsiya, tarixiy manbalar, o'rta asrlar tarixi.

**Kirish.** O'rta asrlar tarixida qal'alar katta yer egalariga o'z hududlarini nazorat qilish, hokimiyatini boshqarish, strategik joylarni qo'lda saqlash imkonini bergan eng muhim mudofaa inshooti bo'lgan. Sharq va g'arb oralig'ida Mavorounnahr hamda Xuroson mintaqasi esa o'ziga xos o'rni bo'lib tutib, jamiyat taraqqiyotida muhim strategik hududlar hisoblangan. Shunday nuqtalardan biri Hirotidagi mashhur Ixtiyoriddin qal'asi nafaqat harbiy istehkom, balki siyosiy-iqtisodiy boshqaruv markazi hamda siyosiy mahbuslar uchun zindon sifatida ham tarixiy manbalarda alohida o'rin egallaydi. Dastlab tarixiy manbalarda mazkur qal'a-qo'rg'on vazifasiga ko'ra hudud mudofaasi va harbiy tayanch nuqtasi sifatida tavsiflangan. Ta'kidlash lozimki, qal'a geografik jihatdan balandlikda joylashganligi, shahar atrofini nazorat qilish imkoniyati va qalin devorlar tizimiga ega bo'lishi bilan dushman hujumlariga qarshi tabiiy va sun'iy to'siq vazifasini bajargan. Shunga ko'ra Ixtiyoriddin qal'asi ham antik davrdan buyon dushmanlar hujumini qaytaradigan inshoot, jangovar tayyorgarlik uchun zarur ombor va qurol-yarog' zaxiralari to'plangan joy sifatida ham mashhur bo'lgan. Tarixchi Gardiziy va Bayhaqiylarning ma'lumot berishicha bu qal'a o'z davrining mustahkam mudofaa devorlari bilan ajralib turgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ixtiyoriddin qal'asining aniq bir davrda bunyod etilishi yoki nega uni Ixtiyoriddin deb nomlanishi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Xurosonda O'rta asrlarda hukm surgan sulolalar davrida mazkur qo'rg'on kengayib, xususan, G'aznaviylar sulolasi davrida G'azna shahridan keyingi ma'muriy markaz sifatida ahamiyatga ega bo'lgan. Abu-l Fazl al-Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy"da ayrim voqealarni tasvirlar ekan, Ma'sud G'aznaviy dastlabki boshqaruv ishlarini shu qo'rg'onidan turib boshqarganligi, uning ishtirokida siyosiy majlislar bo'lganligi hamda hukmdorning boyliklari saqlanishi haqida ma'lumotlarni keltirgan [1]. Ixtiyoriddin qal'asi nomini kelib chiqishi va qurilishiga oid aniqroq ma'lumotlar keyinchalik XIV-XVI asrlar tarixiy manbalarida qayd etilgan. Xususan, dastlabki ma'lumotlar Hofizi Abru bergan bo'lsa, Abdurazzoq Samarqandiy "bu qal'a Hirot shahrining shimol tarafidagi devorga qurilgan bo'lib, kart maliklari zamonida Malik Faxruddin qurgan va Ixtiyoruddin hosi nomi bilan mashhur edi" deya qayd etadi. Ko'rinib turibdiki, keltirilgan ma'lumotlar Ixtiyoriddin qal'asi ilk bor XIII asr oxirlarida qurilgani haqida ma'lumotlar kelsa [2], ayrim manbalarda hijriy 669/1270–1271-yilda Elxoniyalar sulolasi

hukmdorlaridan biri tomonidan qayta tiklangani qayd etiladi. XV asr Hirotida yashagan shoir va tarixchi Isfazoriy esa shaharning qadimiy qismi shimoliy devorga tutash balandlikda joylashgani haqida ma'lumot bergan.

Manbalari asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo'rg'on va qal'a tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlashtirildi. Masalan, yevropalik tadqiqotchi Allen Ixtiyoriddin qal'asi nomini Kartlar sulolasi davridagi harbiy qo'mondon nomidan kelib chiqqan, deb taxmin bildirsa [3], rus arxeologi M.E.Masson esa bu atama shunchaki tasodifan qo'yilgani haqida ma'lumot beradi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu qo'rg'onning dastlab qachon qurilgani haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, ayrim arxeolog tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, qal'aning janubiy qismida eski Hirot qo'rg'oni qoldiqlari topilib, Aleksandr Makedonskiy bosqini davriga tegishli ekanligi aniqlangan. O'sha davrda Artakoana nomi bilan tanilgan shahar qayta qurilib, "Aria Aleksandriyasi" deb atalgan [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ixtiyoriddin qal'asini o'rganish ishlari dastlab 1960–1970-yillarning boshlarida YUNESKO homiyligida bir qator arxeologik ekspeditsiyalarning tashkil etilishi natijasida boshlangan. Mazkur ekspeditsiyalar natijasida Ixtiyoriddin qal'asini saqlanish holati, arxitekturası, joylashuvi to'g'risida hisobot tayyorlangan. Shunday tadqiqotchılardan biri fransuz arxitektori, tarixchi va arxeolog Aleksandr Lezini bo'lib, u 1962-1963-yillarda YUNESKOning madaniy yodgorliklar bo'yicha Afg'onistondagi eksperti sifatida ekspeditsiyalarda ishtirok etgan. Ikki marta o'tkazilgan ekspeditsiyasi natijasida qiziqarli faktlar yuzaga chiqdi. Xususan, zindon qismida chuqur quduq mavjudligi, u yerga asirlar va mahbuslar tashlab qo'yilgani hamda uzoq vaqt foydalanilmagani bois ichki qismi vayronaga aylanganligi haqida ma'lumot berib, yon binosida hammom zallari qoldiqlarini aniqlagan [5].

Shuningdek, ekspeditsiya natijasida Temuriylar davri keng tarqalgan yozuvlarning rangli va geometrik naqshlar bilan uyg'unlashtirilgani, qurilish texnikasidagi tafsilotlar keng yoritib berilgan.

Keyingi tadqiqot ishlari arxeolog-tarixchilar L.Golombek, D.Vilber tomonidan olib borilib, o'zlarining "Eron va Turonning Temuriylar arxitekturası" nomli monografiyasida Temuriylar davri (XV-XVI asrlar) Movorounnahr va Xuroson hududlari me'moriy yodgorliklari tavsifi berilgan. Shuningdek, unda Hirotida joylashgan Ixtiyoriddin qal'asining tuzilishi, uning vazifasi hamda arxitektura jihatdan o'rganilishi, minoralarning holati va dekorativ ko'rinishi bo'yicha batafsil ma'lumotlar o'rin olgan. Mazkur monografiya Ixtiyoriddin qal'asi Kart maliklari tomonidan loyihalashtirilgan va qurilgan bo'lsa-da, qabul zali (bargoh) va devorlarga g'alaba sahnalari ishlangan suratlar Temuriylar davrida kiritilganligini tahlil qilib berganligi bilan ham qimmatlidir.

Monografiyada Aleksandr Lizeni ekspeditsiyasiga oid hisobotlar ham tahlil qilingan. Mualliflar Temuriylar asriga qat'iy tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan yagona bezak – 17-minora (jami 25 ta minora bo'lgan turli davrlarda bunyod etilgan – muallif) va unga tutash devor bo'lagidagi koshin qoplamasi bo'lib, o'sha davr me'morchiligining juda yorqin namunasi hisoblanishini qayd etib o'tgan.

1976–1979-yillar davomida Afg'oniston Demokratik Respublikasi hukumati, YUNESKO va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) hamkorligida arxeologik qazishma va restavratsiya ishlari amalga oshirilgan. Bu loyiha 1979-yilda sobiq Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishi ortidan to'xtatilgan, biroq uning doirasida juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan va ular haligacha chuqur tahlil qilinmagan.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ixtiyoriddin qal'asi ikki qismdan iborat bo'lib, dastlab Kartlar sulolasi davrida qo'rg'onning g'arbiy qismi taxminan 60 x 25 metr o'lchamdagi xom g'ishtdan barpo etilgan to'rtburchak shakldagi kengroq hududni tashkil etadi. Qal'aning ikkinchisi qismi haqiqiy mustahkam inshoot hisoblanib, Temuriylar davrida taxminan 18 x 42 metr o'lchamdagi pishgan g'ishtdan qurilgan. Ikkalasi ham avvalboshdan 25 ta burj bilan mustahkamlangan bo'lib (shundan faqat 18 tasi 1970-yillarning oxirida hujjatlashtirilgan), bu burjlar turli qurilish davrlarini aks ettiradi [6]. Ixtiyoriddin qal'asi butun hajmi bo'ylab sirlangan koshin bilan qoplangan bo'lishi mumkin, ammo undan faqat shimoli-g'arbiy burj va unga tutash devordagi kichik qismgina saqlanib qolgan. Bu devorda Temuriylar davriga mansub devoriy naqsh bezaklari va tasvirlari parchalari hamon ko'zga tashlanadi [7].

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ixtiyoriddin qal'asining birinchi qismi bunyod etilishi bilan bog'liq ma'lumotlar Kartlar sulolasi nomi bilan bog'liq. Tarixiy manbalarda Kartlar sulolasi "kartlar" yoki "kurtlar" nomi bilan ham yuritilgan. Mazkur sulolaning nomi kelib chiqishi mo'g'ul hukmdori Mangu Hoqonga borib taqaladi. O'sha davr mo'g'ullarning yangi tartibiga binoan [8], Mangu Hoqon tomonidan ixtiyoriga berilgan Hirot, Seyiston, Balx va Hindistonning mo'g'ul hududiga qo'shib olingan mulklari Malik Shamsiddin Muhammad Kartga berilib, sulola tarixi uning nomi bilan boshlanadi [9]. Amir Temur tomonidan 1381-yilda Hirot egallagunga qadar Kartlar sulolasi Xurosonda mo'g'ul qoidalari bo'yicha davlatni boshqarib, katta kuchga ega bo'lgan (1245-1389 yy). Malik Shamsiddin Muhammad 1277-yil vafot etgach, hokimiyatga uning o'g'li Rukniddin o'tirib, malik unvonini oladi. U 1305-yilda vafot etgach, hokimiyatni uning o'g'li Faxriddin (1295-yildan boshlab) egallagan.

Siyosiy hokimiyatda katta ta'sirga ega shaxsoda taxminan 1299–1300-yillarda Ixtiyoriddin qal'asini bunyod ettirib, Hirotning g'arbiy qismidan shimoliy qismiga qadar devor va xandaqlar bilan uni mustahkamlaydi. Malik Faxriddin o'z davrida adabiyot homiysi, shuningdek, o'ta dindor inson bo'lgan [10]. Keyinchalik Malik Faxriddinni vorisi Malik G'iyosiddin Kart davrida Ixtiyoriddin qal'asining sharqiy qismida bunyodkorlik ishlari davom ettirilib, janubiy va shimoliy tomonda qasr bunyod etildi. Vaqt o'tishi bilan qasr devorlarida Elxoniyalar sultoni Abu Said va unga qarshi chiqqan Chig'atoy ulusi shahzodasi Yasavur qo'shinlari jangi tasvirlangan freskalar paydo bo'ldi.

**Tahlil va natijalar.** Ixtiyoriddin qal'asi qurilishining ikkinchi bosqichi Amir Temur va Shohrux Mirzo hukronligi davriga to'g'ri keladi. Sohibqiron Amir Temur tomonidan Movorounnahr va Xuroson hududlarini birlashtirish ishlari boshlangach, 1381-yilda Hirot egallangan vaqtda Ixtiyoriddin qal'asi ham mavjud mudofaa devorlari bilan buzib tashlandi. Afsuski, tojikistonlik tadqiqotchi tomonidan bu faktlar uning tadqiqot ishida buzib ko'rsatilgan. Xususan, Faruh Tadoyonrudi "U (Sohibqiron – muallif) Bog'i Zog'onda bo'lganida shunday yorliq chiqardiki, unga ko'ra Hirotidagi barcha qal'alar – eski yoki yangi bo'lishidan qat'iy nazar yer bilan yakson qilinishi lozim edi. Hirot egallanishi bilan faqatgina Ixtiyoriddin qal'asi emas, Amankuh, Xaysar kabi qal'alar ham buzib tashlanadi" deya o'z fikrini bayon etgan [11]. Tadqiqotchi mazkur fikri orqali Amir Temurni buzg'unchilikda ayblaydi. Uning bu fikrga kelishida tarixchi Sayfining "Ularni ham, boshqalarni ham yer bilan yakson etdilar. Bu dunyo hukmdorining irodasi edi" deya ma'lumot berganligi [12] bo'lsa kerak. Ammo tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy "Amir sohibqiron (Temur) Hirotni fath qilgan vaqtida shahar devorlarini xarob qildi-yu (hijriy 783-milodiy 1381 yil), ammo qal'ani ishonchli kishilarga topshirdi: bir qancha vaqtdan keyin esa qal'a bilan shaharning asliy devori

orasida, toki qal'aga sarkub [13] bo'lmasin uchun, fosila [14] paydo qilsinlar deb buyurdi: Sharq tomondan ellik gaz devorni (yiqitib) yerga yetkazdilar va nusxaga binoan (nusxa (kitob))da keltirilganki, to u xarob bo'lguncha, yetti yuz ming kishi ishladi" deya ma'lumot beradi [15]. Mazkur fikrlar Amir Temur tomonidan Hiroti egallagan paytda faqatgina mudofaa devorlari buzdirganligi, lekin qal'a buzilmaganini isbotlaydi. Albatta, bu ishlar Xurosonni qayta qo'zg'olon ko'tarmasligiga yoki qal'ani mudofaa devorlariga ishonib mustaqillikka erishmasligi uchun qilingan. Chunki, Amir Temur bosib olgan yerlarida tinchlik va adolatni o'rnatib, ko'plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirilganligi tarixiy manbalarda ta'kidlab o'tilgan.

Malik Faxriddin Kart davrida xom g'ishtdan to'rtburchak shaklda qurilgan Ixtiyoriddin qal'asi va devorlari Sohibqiron Amir Temur davrida buzdirilgach, ma'lum vaqt bu qal'a haqida ma'lumotlar yozilmaydi. Ammo Shohruh Mirzo Xurosonni egallagach, bunyodkorlik ishlarini davom ettirgan. Tarixchi Xondamirga ko'ra, dastlab Shohruh Mirzo tomonidan 1410-yilda Ixtiyoriddin qal'asiga yondosh qilib madrasa va honoqoh binosi qurilib [16], mazkur madrasaning ochilish marosimi va birinchi darsni olim va ulamo Mavlono Jaloliddin Yusuf Ubaxiy boshlab bergan [17]. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy "Hirot qal'asi qurilganligi zikri" deb nomlangan qismida "Hazrat xoqoni said jahon (Shohruh Mirzo) saltanati taxtini sharaflil qilgach, shahar qurilishi borasida yana qaytadan yangi tarh chizdi, chunonchi, buning sharhi bayon qilib o'tildi. Onhazrat bu yili (Hijriy 818-yil milodiy 1415/1416-yil) tuproq ustiga xom g'ishtdan qurilgan o'sha qadimiy hisor (o'miga) tosh, ohak, ganch va pishiq g'ishtdan bir qal'a qurishga buyurdiki, tuproq yuzida bu kabi mustahkam bir bino va bu kabi qattiq bir poydevorni hech bir mamlakatda bundan ko'rkamroq qilib qurgan emaslar" deya tarifini keltirib o'tadi [18].

Shuningdek, bu haqda Hofizi Abru "Shohruh Mirzo tomonidan mazkur qal'a tosh va pishiq g'isht bilan kengaytirilgan va mustahkamlangan"i, Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida "Hirotida Temur buyrug'i bilan vayron qilingan Ixtiyoriddin qal'asini qurishga buyruq berdi va uning qurilishida yetti ming kishi mehnat qildi" deb ma'lumot qoldiradi. Qal'ani bunyod etishda jalb qilingan ishchilar soni bo'yicha tarixchi Xondamir Abdurazzoq Samarqandiyga iqtibos berib, jalb qilingan ishchilar sonini – "Matlai sa'dayn"da yozilganki, bu qal'ada yetti yuz ming kishi ishlashi natijasida ishlar tezda poyoniga yetkazildi" – deya aniqlik kiritadi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida keltirilgan ma'lumotda esa "Ixtiyoriddin qal'asi Shohruh Mirzo (1404–1447)ning amri bilan tosh hamda pishiq g'ishtdan qayta tiklangani, Xuroson viloyati poytaxti – Hirot shahrining o'rdasi Ixtiyoriddin qal'asida joylashgani, uning shimoliy va janubiy tomonidan darvoza atrofi suv to'latib qo'yiladigan keng va chuqur handaq bilan o'ralgani, darvozaga o'tiladigan ko'priklar zarur paytda zanjirlar bilan tortib, ko'tarib qo'yilgani, qal'ada qurol-aslaha, siyosiy mahbuslar, muhim hujjatlar va boyliklar saqlangani" haqida ma'lumotlar keltirilgan [19]. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili asosida aytish mumkinki, Ixtiyoriddin qal'asining asosiy vazifasi hujum yoki jang holatida harbiy mustahkam maskan bo'lishidan tashqari, u turli davrlarda hukmdor saroyi, xazina saqlanadigan mustahkam bino, shuningdek, siyosiy ahamiyatga ega mahbuslar uchun qamoqxona sifatida ham xizmat qilishdan iborat bo'lgan.

Darhaqiqat, Shohruh Mirzo farmoni bilan 1418-yil aprel oyida Qaydu Mirzo Ixtiyoriddin qal'asiga voliy etib tayinlandi va Shohruh Mirzoning harbiy yurishlari davrida unga dorug'alik vazifasi (shaharni boshqarish nazorati – muallif) ham yuklatilgan. Ko'p vaqt o'tmasdan Qaydu Mirzo o'sha yilning rajab oyida (avgust-sentabr) Shohruh Mirzoni

Hirotida yo'qligidan foydalanib unga qarshi fitna uyushtiradi. Lekin kuchi yetmasligi aniq bo'lgach, Ixtiyoriddin qal'asini tashlab Qandahorga qochib ketadi. Biroq isyonchi shahzoda Boysunqur Mirzo tomonidan qo'lga olinib, Ixtiyoriddin qal'asida zindonband qilindi. Keyinchalik Shohruh Mirzo uchinchi marta Ozarbayjonga harbiy yurishida Ixtiyoriddin qal'asi qutvolligini Amir Bobo Ma'sudga topshirgan. "Ma'tlai sadiyn"da Amir Bobo Ma'sud "bag'oyat benomus ham bebok (beg'am) kishi edi, raiyyatning xotin va bolalariga qasd qilar, bebosh va buzuq kishilar suhbatiga mayl ko'rguzar va hech mubolig'asiz o'z chamasidan ortiq tarzda maishat o'tkazar edi" deya tarif berilgan. Amir Bobo Ma'sud vafot etgandan so'ng, qal'a qutvolligi uning birodari Muso Mirakka beriladi.

Mirzo Shohruh vafotidan keyingi taxt uchun kurashlarda Ixtiyoriddin qal'asi temuriy shaxzodalar uchun tayanch mudofaa qal'asi bo'lib xizmat qilgan. Xurosonda yakka hokimiyat uchun kurash boshlanib ketadi. Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdulatif Mirzo unumli foydalanib ko'pgina qal'a va qishloqlarni talon-taroj qiladi. 1447-yil 30 aprelda Alouddavla Mirzoning to'satdan hujumi natijasida Abdulatif Mirzo g'aflatda qolib yengiladi. Shundan so'ng shahzodani saltanat poytaxti Hirotida Ixtiyoriddin qal'asida maxbuslikda saqlaydi. Tez orada Alouddavla Mirzo Ulug'bekka qarshi urush oldidan Amir Muxammad So'fi Tarxon va Amir Sulton Abusaid dorug'ani Hirot hukumatini boshqarish va dorug'alikka, mavlono Ahmad yasovulni xazina joylashgan Imod qal'asiga, Oqo Xojibekka Ixtiyoriddin qal'asi qutvolligini topshiradi.

Muhammad Shayboniyxon Xurosonga yurishi natijasida Ixtiyoriddin qal'asi vayron qilindi. Jang vaqtida qal'a tagidan (naqib) kovlanib, Hirot shahar bog'i tomonidagi burj-minorasi qulatilib, qo'lga kiritilgan. 1510-yilda Muhammad Shayboniyxonning o'ldirilishi natijasida qal'a Safaviylar tasarrufiga o'tadi.

Temuriylardan davr o'tishi bilan Ixtiyoriddin qal'asi bir necha marta qayta qurilgan va mustahkamlangan. Ammo vaqt qal'aning Temuriylar davri me'moriy shakliga ta'sir o'tkazmay o'zligicha saqlanib qolgan. Ixtiyoriddin qal'asi 1747-yilda Safaviylar hukmronligidan keyin Afg'oniston qirolligi ostida qirolik qarorgohi, xazina, qurol-yarog' ombori va qamoqxona sifatida foydalanilib kelingan. Ixtiyoriddin qal'si 1838- va 1856-yilgi Fors, Britaniya, Afg'oniston va Rossiya kuchlari o'rtasidagi ko'plab to'qnashuvlarda jiddiy zarar ko'rib, shu vaqtdan boshlab shahar mudofaa tizimining samarali qismi sifatida qaralmaydigan holatga keldi. XIX asr o'rtalarida uning shimolida mudofaa vazifasini o'z zimmasiga olish uchun zamonaviy qal'a qurildi. XIX asr oxiriga kelib, eski qo'rg'onning sharqiy qismida Hirot harbiy garnizoni bosh qo'mondoni istiqomat qiladigan maskanga, g'arbiy qismi esa asosiy harbiy omborga aylangan.

**Xulosa va takliflar.** Ixtiyoriddin qal'asi Xuroson tarixining eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri sifatida o'rta asrlarda davlat boshqaruvi, harbiy mudofaa hamda madaniy-ma'naviy hayotda muhim rol o'ynagan. Kartlar davrida asos solingan bu qal'a Temuriylar davrida, xususan, Shohruh Mirzo hukmronligi davrida qayta tiklanib, o'zining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirgan. Qal'a uzoq vaqt davomida hukmdor saroyi, xazina saqlanadigan joy, siyosiy mahbuslar zindoni va ma'muriy markaz sifatida faoliyat yuritgan. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar ushbu yodgorlikning me'moriy tuzilmasi, strategik joylashuvi va harbiy texnik imkoniyatlarini chuqur yoritadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildirish mumkin: birinchidan, Ixtiyoriddin qal'asiga oid arxeologik tadqiqotlarni YUNESKO hamkorligida davom ettirish; ikkinchidan, tarixiy manbalar asosida qal'aning me'moriy rekonstruksiyasini yaratish; uchinchidan, bu obidani xalqaro miqyosda madaniy turizm obyektiga aylantirish zarur.

Shu bilan birga, qal'a tarixining O'zbekiston va Markaziy nufuzli jurnallarda yoritilishi maqsadga muvofiqdir. Osiyo madaniy merosidagi o'rni chuqur ilmiy o'rganilishi va

### ADABIYOTLAR

1. Abu'lFazl Beyhaqi. The History of Beyhaqi (The history of Sultan Mas'ud of Ghazna, 1030-1041). Translated by C.E.Bosworth and revised by Mohsen Ashtiany. Volume I. - London: Cambridge, 2011. – P.324.
2. Hafez-e Abru, ed. and tr. D. Krawulsky as *Horasan zur Timuridenzeit nach dem Tariḥ-e Hafez-e Abru*, 2 vols., Wiesbaden, 1982-84. – P. 34.
3. T. Allen, A Catalogue of the Toponyms and Monuments of Timurid Herat, Cambridge, Mass., 1981. – P. 64.
4. M. E. Masson М.Е. К исторической топографии Герата XV века. – Tashkent, 1948. – С.123.
5. Lezine A. Herat. Notes de voyage. Bulletin d'Études Orientales 18, 1963-64. – Paris. – P.127-45.
6. A. Bruno, The Citadel and the Minarets of Herat, Afghanistan, Technical Report, UNESCO (UNDP/AFG/75/022/A/01/13), Paris, 1976.
7. L. Golombek and D. Wilber, The Timurid Architecture of Iran and Turan, 2 vols., Princeton, 1988. – P. 46.
8. Mug'ullarni yangi qoidasiga ko'ra, ularga xizmat qilgan amirlarga boshqaruv farmonlari va payzalar berilgan.
9. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho (Jahon fotihi tarixi). – Toshkent: Mumtoz so'z nashriyoti, 2015. – B.455.
10. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayin va Majmai Baxrain. II JILD. Birinchi qism. 1405-1429 yillar voqealari. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. -B.286.
11. Фаруг Тадайонруди (2015). ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ ГЕРАТА XIII - XIV вв. Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки, (2 (43)). – С. 49.
12. Сайф ибн Мухаммад ал-Хирави. Таърихномаи Хирот. – Калкутта, 1944. – С.202.
13. Sarkub – harbiy atama bo'lib, qal'a mudofaachilariga qarshi o'q otish uchun qal'a rufarasida tiklanadigan ko'tarma inshoat.
14. Fosila – ikki devorni ajratib turuvchi orqaliq yer.
15. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayin va Majmai Baxrain. II JILD. Birinchi qism. 1405-1429 yillar voqealari. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. -B.286.
16. G'iyosiddin Xumomiddin Xondamir. Xabib us-Siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B.364.
17. O'sha asar, – B.466.
18. Ахмедов, С., & Бойматов, Х. (2021). Анализ некоторых данных в “Matlai Sa'dayn wa Majmai Bahrain”. Восточный факел, 3(3), 137–146. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/15392>. – Б.140.
19. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “I” harfi. 7-jild – Toshkent: Fan, 2003. – 354.